



## NUTQIY AKT VOQEALANISHIDA MAQOLLARNING TUTGAN O'RNI MASALASI

Axrorov Alisher Akbarovich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Latipov Murotali Mannopovich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Alisher O'razov

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15387263>

### ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> April 2025

Published: 10<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

*nutqiy akt, so'zlovchi, tinglovchi, kommunikatsiya, nutqiy faoliyat, lokutsiya, propozitsiya, illokutsiya, perlokutsiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada nutqiy akt tushunchasi, uning o'rganilishi, bu bo'yicha jahon va o'zbek olimlarining qarashlari, nutqiy akt turlari va tasnifi, ularda maqollarning pragmatik imkoniyatlari masalasi mavjud manbalarni qiyoslash, tavsiflash, tasniflash asosida ko'rib chiqildi.*

XX asr boshlarida nutqning shakllanishi, shuningdek, o'zaro aloqa jarayonida til birliklarining qo'llanishi bilan bog'liq masalalar, asosan, nutqni til bilan taqqoslashda, ma'lumotlarni saqlash va yetkazishga mo'ljallangan belgilarning samarali tizimi sifatida tadqiq etildi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida til haqidagi tushunchalarning faoliyatga bog'lanishiga ko'proq e'tibor berila boshladi. Tilga so'zlovchi va tinglovchining o'zaro ta'siri turi sifatida qarashga e'tibor qaratildi. Boshqacha aytganda, tilning so'zlovchi va tinglovchi munosabatisiz mavjud bo'la olmasligi, ularning bir-biriga ta'sirisiz, munosabatisiz nutqning o'zi ham mavjud bo'la olmasligi masalasi idrokdan, amaliy faoliyatda namoyon etilishga yuz tutdi. Nutqiy faoliyat subyekti psixologik va ijtimoiy tavsiflarni yetkazuvchi sifatida o'rganishga kirishildi. Ma'lumki, til va nutqqa nisbatan bunday yondashuv asosida nutqiy aktlar nazariyasi yotadi. Pragmalingvistikaga doir adabiyotlarda qayd etilishicha, nutqiy aloqaning eng kichik birligi nutqiy akt hisoblanadi<sup>1</sup>. "Nutqiy akt" atamasi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. "Nutqiy akt" atamasi nutqiy akt tuzilishida ishtirok etuvchi a'zolari, shuningdek, yaxlit holda nutqiy aktni belgilashda qo'llaniladi. Nutqiy akt tuzilishi to'rt bosqichga: lokutsiya, propozitsiya, illokutsiya va perlokutsiyaga ajratiladi. Lokutsiya tushunchasi ostida biz "aynan gapni talaffuz qilish akti"ni tushunamiz<sup>2</sup>. Illokutsiyani (illokutiv akti) belgilashda biz E.V.Paduchevaning "illokutsiya bu – kommunikativ maqsadning namoyon bo'lishi" to'g'risidagi qarashlariga qo'shilamiz. Perlokutsiya tushunchasi ostida esa ta'sir, ya'ni ifodaning adresatga ko'rsatgan ta'siri tushuniladi.

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография.– Тошкент, 2008 йил, – Б.77.

<sup>2</sup> Падучева Е. В. Высказывание и его соотносительность с действительностью. – М.: Наука, 1985. – С. 23.

R.O.Yakobson pragmatikaning asosiy birliklari sifatida olti elementni so'zlovchi, tinglovchi, kod (til), xabar, kontekst va aloqani ko'rsatsa, D. Xayms nutqiy jarayonda ishtirok etuvchi to'qqizta kategoriyani ko'rsatadi: 1) adresant va adresat 2) nutq predmeti; 3) qurshov, sharoit – joy, vaqt, boshqa ahamiyatli mezonlar; 4) muloqot kanali – aloqaning mavjudlik usuli; 5) “kod” – til, dialekt va boshqalar; 6) “ma'lumot shakli” – nutqiy janr; 7) hodisa – kommunikativ hodisa tabiati, ma'lum bir janrda yuz berayotgan vaziyat; 8) “kalit” – nutqiy hodisa samaradorligi bahosi; 9) “maqsad” – nutqiy vaziyat qatnashchilarining maqsadi kabi<sup>3</sup>.

O'zbek tilshunosligida nutqiy akt nazariyasi yo'nalishi bo'yicha ba'zi tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq so'zlovchi va tinglovchi shaxsi, nutqiy akt ishtirokchilarining o'zaro munosabati, axloqiy tuyg'ularga ta'sir etish va uni boshqarish kabilar lingvistik pragmatikaning muammolari sifatida o'z talqiniga ega bo'lmadi, – degan fikr aytiladi<sup>4</sup>. Bu to'g'ri, albatta. Nutqiy akt va uni o'rganish muammosi ham tilshunoslikda dolzarb masala hisoblanib qolmoqda.

Tilshunos olim Sh.Safarov nutqiy akt tushunchasi mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda – gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, vada berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir”<sup>5</sup>.

O'zbek tilshunosligida matnning pragmatik tahlili bo'yicha kuzatishlar olib borgan M.Hakimov esa nutqiy akt ko'rinishlarini quyidagicha tasniflaydi:

reprezentativ yoki xabar akti;  
undash aktlari (buyruq, taklif, iltimos, so'roq, maslahat);  
majburiyat yoki komissiv aktlar (va'da, qasamyod, tasdiq, xabar);  
ekspressiv aktlar (minnatdorlik, tabrik, kechirim so'ramoq, his qilmoq, afsuslanmoq, salomlashmoq);

deklarativ akt (deklarativ akti sodir etish huquqi faqat ma'lum ijtimoiy mavqeni faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxsga beriladi)<sup>6</sup>. Masalan: *Nima qilsin? Quruqdan-quruq boraversinmi? Har kim o'z obro'siga yarasha ish tutishi kerak. Gilam oborsa chol nazariga ilmaydi. Magnitofon oboray desa chol odam uni nima qiladi? Tilla soatmi? U ham bo'lmaydi. Arzimagan narsa. Shunday narsa oborsinki, Rahimovning qulog'iga etsin. Yaqin odamlarimni ham qadrlayapti, desin. **Egasini siylasang itiga suyak tashla, deb bekorga aytishmagan*** (S.Ahmad. “Jimjitlik”, 225-bet). Maqol maslahat mazmunini ifodalaydi va maslahat nutqiy aktini shakllantirsa,

– *Tokaygacha odamlar qoboq-tumshug'iga qarab kun ko'radi? Yo shunday o'tib keta beradimi? Umri oxirigacha-ya? Og'ziga etgan bor, etmagan bor. Bir kun emas-bir kun, birov bilan gapi chap tushadi. Yuziga aytadi... Shunda nima degan odam bo'ladi? **Ko'za kunda sinmaydi, kunida sinadi!** Mana, necha yilkim, mung'ayib kun ko'radi. El-yurt bilan muloqot qilsa, gap ketishiga qarab turadi. Birov bir bema'ni gap gapirsa: – Sizniki ma'qul, – deya bosh irg'aydi. Bordi-yu, shu gapni boshqa birov inkor etsa: – Sizniki-da ma'qul, – deydi. Inkor etmaydi, e'tirozda bildirmaydi. Hayot ketishi, kun o'tishini poylaydi.* (Tog'ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”, 21-bet) ushbu matnda berilgan maqol tanbeh mazmunli matnni shakllantirgan. Ko'rinadiki, maqollar matnda ishtiroki bilan, ya'ni o'zida ifodalangan ma'no asosida shu mazmundagi matnni shakllantirishga xizmat qiladi. Keltirilgan matnlarda maslahat, tanbeh mazmuni

<sup>3</sup> Hymes D. Toward ethnography of communicative events // Language and Social Context. Ed. by P. P. Giglioli. – Harmondsworth, 1972.

<sup>4</sup> Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – Б.135.

<sup>5</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008 йил, – Б.77.

<sup>6</sup> Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – Б.6.

ifodalangan. Turli mazmunli matnlarni shakllantirishda maqollarning imkoniyatlari ancha keng. Masalan, "Uh, qizbet! — dedi. — Aqalli bir og'iz chiqmayman, demadi-ya!" Juda-juda alam qildi. "Qizbet! **Itidan bo'lgan, qurbonlikka yaramas!** Qarab tur, sen qizbetni davraga qaytib chiqmaydigan qilmasam ko'rasan" (T.Murod "Ot kishnagan oqshom"). Matnda qo'llanilgan til birliklar va birikmalar haqorat mazmunli matnni shakllantirgan bo'lsa, "– Ko'rgansan, bolaligida ko'rgansan. Bo'yi etib, juda ochilib ketibdi. Ushoqqina qiz edi. Men o'zim ham "Yo tavba!" – deb hayron qoldim. Anavi mahallamizda Sattor bejirim bor-ku, o'shaning qizi. **Qarqunoqdan bulbul chiqibdi**". (Shuhrat. "Bir kecha fojiasi", 27-bet) matnida kinoya mazmunini shakllantirishga xizmat qilgan.

Til birliklarining nutqiy aktlarda qo'llanishi to'g'risida fikr yuritganda, shuni yodda tutish lozimki, maqollarning nutqiy aktlarda qo'llanishi nutqiy aktning qanday mazmunni ifodalashiga bog'liq holda yuzaga chiqadi. Nutqiy akt yig'indisi nutqiy mazmunni tashkil qiladi. So'zlovchining munosabati esa nutqiy aktlar vositasida shakllanadi. Bunda inson tilining ibtidoiy shakllanishidan tortib to uning murakkab mazmuniy tuzilishiga qadar bo'lgan lingvistik xususiyatlari nutqiy akt muammolari sifatida talqin etiladi. Nutqiy akt nazariyasiga xos har bir tadqiqiy talqinda nutq subyekting olamni bilish va his qilishdagi tasavvur ko'rsatkichlarining nutqdagi darajalari hisobga olinadi. Nutqiy akt nazariyasiga xos mana shunday o'zak tadqiqiy talqin lingvistik pragmatika tarmog'ining shakllanishi uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi"<sup>7</sup>. Demak, pragmalingvistikaning soha sifatida shakllanishida ham nutqiy akt birlamchi o'rin kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG 'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
2. O'razov, A. (2023). TILSHUNOSLIK VA UNING SATHLARI XUSUSIDA.
3. Doniyorovich, O. R. A., & Shavkatovna, A. S. (2024). O 'ZBEK TILIDA LEKSEMA TALQINI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(18), 144-146.
4. Абдуҳакимович, М. Қ., Мамарахимов, С. М., & Ўразов, А. Д. (2024). ЎТМИШДАЁҚ УНУТИЛГАН АРХАИК СЎЗЛАР "ЎЛИК СЎЗЛАР" ДИР. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 74-78.
5. Doniyorovich, O. R. A., Xolbo'Tayevna, P. I., & O'G, R. Z. S. I. (2025). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O 'RGANLISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 205-208.
6. Akbarovich, A. A. (2023). MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 163-166.
7. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. *МАКОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
8. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
9. Ahrorov, A. A. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49-53.
10. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
11. Boxodirovich, E. N., & Murtazaevich, M. S. (2022). Phonological approaches to the study of the phoneme.

<sup>7</sup> Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – В.6.

12. Fazilat, E., Lutfinisa, D., & Sirojiddin, M. (2024). OZBEK SAHNA ASARLARI TILINING AYRIM JIHATLARI SHARHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 16-21.
13. Rizaqulovich, E. I., Murtozayevich, M. S., & Qizi, N. O. A. (2024). OTNING XUSUSIY LUG 'AVIY SHAKLLARI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 26-29.
14. Mamaraximov, S. (2022). MAQSAD MA'NOSINI IFODALOVCHI DASTLABKI VOSITALAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 376-385.
15. Muratkulov, A., Mamaraximov, S., & Latipov, M. (2025). "БОБУРНОМА" АСАРИДА АБЖАД ҲИСОБИ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 97-100.
16. Murtazayevich, M. S., Akbarovich, A. A., & Muratkulov, A. (2025). OTLARNING XUSUSIY BIRIKUVCHILARINING LINGVISTIK TAHLILI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 212-215.
17. Latipov, M. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS'HOQXON IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O 'RGANILISHI HAQIDA. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60).
18. Muratkulov, A., Mamaraximov, S., & Latipov, M. (2025). "БОБУРНОМА" АСАРИДА АБЖАД ҲИСОБИ. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 97-100.
19. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. *Проблемы педагогики*, (7), 77-78.
20. Yerjanova, S. B., & To'yuchiyeva, Z. H. L. (2024). MAHMUD KOSHG 'ARIYNING "DEVONU LUG 'OTIT TURK" ASARIDA SO 'ZLARNI KO 'CHMA MA'NODA QO 'LLASH. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 7-12.

INNOVATIVE  
ACADEMY